Raxmonov Faxriddin Numonovich
Qarshi Davlat Universiteti magistri
Tel:+998-97-134-21-22

NAY IJROCHILIGIDA REPERTUAR MASALALARI

Annotatsiya: *Musiqa xalq qalbining, ko‘nglining ifodasidir. O‘tgan o‘nlab, yuzlab asrlar mobaynida ajdodlarimizning taqdiri qanday kechdi, ko‘nglida qanday his-tuyg‘ular hukmron bo‘ldi, bularning bari musiqiy asarlarda o‘z aksini topgan. Ushbu maqolamizda Nay cholg’usini ijrosini o‘zlashtirishda mutaxassis pedagog tomonidan tavsiya etiladigan asarlar, ijro maxoratini oshirishi yoki aksincha rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkinligi va ahamiyatini haqida so’z yuritdik.*

Kalit so’z: *Repertuar, pedagog, Nay, Nerv sistemasi, jismoniy sog’lomlik, O‘quv ish rejasi*

Kirish

Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish - bu insonning jismonan, aqlan mamaviy tomondan kamolga yetish jarayonidir. Bu jarayonning o’ziga xos obektiv va sub’ektiv tomonlari mavjud.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o’rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o’ynaydigan san’at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: “Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san’atda emasmikan, zeroki, ritm va garmoniya hammadan ko’proq shu vaqtda qalbga chuqur yo’l topadi va salobat baxsh etib, uni ko’rkam qiladiki, agar tarbiya to’gri yo’lga qo’yilgan bo’lsa, aks xolda uning teskarisi bo’lib chiqadi”.[1]

Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. “Musiqa kishi ruxining ahloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta’sir etadi.” Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr Al-Farobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta’sirini quyidagicha bayon etadi: “Bu (ya’ni

1. Эшанкулов М. Музыкальные инструменты в системе искусства макома. Диссертация на соискание ученой степени доктора искусствоведения. – Санкт-Петергбур: 2016. – 174с.

musiqa D.O) shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir."[2]

Usullar:

Musiqa inson ruxi va aqliy rivojiga bebaho ta'sir o'tkazadi. Ch.Darvin umrining oxirlarida quvvati xofizasi (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi: "Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo'lganda edi, endigi hayotimda loaqal xaftada bir marta bo'lsa ham, bir necha she'r o'qishni o'zimga qoida qilib olardim"[3] Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo'shilishiga ahloqiy soflik, san'atga va hayotga estetik munosabat - shaxsning to`laqonli kamolga yetishida muhim shartlardir. Bu olijanob maqsadga erishishda to'g'ri yo'lga qo'yilgan bolalar musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga egadir.

Bolalar qobiliyati aktiv musiqa faoliyati davomida rivojlanib boradi. Qobiliyatlar deganda insonning kerakli ko'nikma, malaka, ilmlarni olishi va uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi.

Ma'lum bir faoliyat turiga bo'lgan qobiliyat. Nerv sistemasining (tizim) analizatorlari sezgirligi, kuchi, nerv jarayonlarining harakatlanganligi, muvozanatlashganligi kabi omillar asosida rivojlanadi. Masalan: mutaxassislik sinfda o'qiyotgan ikkita o'quvchiga o'qituvchi bir xil asar yoki etyudini beradi. Lekin o'quvchilardan biri etyudni bir xaftadan keyinroq, yana biri darhol chaqqon, tez o'lashtira boshlaydi. Boshqa o'quvchi esa bu ishni bir oy o'tganda ham bajara olmaydi va ko'p xatolar qiladi. Muvaffaqiyatga erishishdagi bu farqni xoxlagan bir pedagog ana shunday holatlarda o'quvchilarga to'g'ri repertuar tanlash kerakligini tushunib yetadi.

Natijalar va munozara:

[2]. Кибирова С. Музыкальные инструменты в традиционной культуре уйгуров. Автореферат на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. –Ленинград:1989.
[3]. Мациевский И.В. Основные проблемы и аспекты изучения народных музыкальных инструментов и инструментальной музыки.ч.1. М.: Музыка, 1987.

Bizning talim-tarbiya tizimimiz hamma o’quvchilar uchun bir xil imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga har bir kishida mavjud bo’lgan iqtidor, qobiliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratiladi, o’quvchilarga ularning individual o’ziga xosliklarini hisobga olgan xolda tabaqalashtirilgan xolda yondashuvni inkor etmaydi. Qobiliyatlar namoyon bo’lishi uchun esa pedagog to’g’ri repertuar tanlashiga to’g’ri keladi .

Yuqoridagi boblarda ta’kidlab o’tganimizdek Nay cholg’usini ijrochilikda yuksak marralarga chiqargan ustoz san’atkorlarimiz tomonidan bastalangan va o’zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan asarlarni Nay cholg’usi uchun moslashtirgan asarlari, bolalar musiqa va san’at maktabi ta’lim oluvchilarining yuqori sinflariga to’g’ri keladi. Umuman olganda bolalar musiqa va san’at maktablarining kutubxonalarida Nay uchun darslik va adabiyotlarning kamligi ilmiy ishimizning dolzarbliligini belgilaydi.

Nay cholg’usi mutaxassisligidan dars berayotgan o’qituvchilar nay uchun asarlarni boshqa musiqiy cholg’ular uchun ishlab chiqilgan darslik va adabiyotlardan foydalanayotgani achinarli xol.

Bizga ma’lumki bolalar musiqa va san’at maktablarida mutaxassislik fanlaridan o‘quvchilarning shaxsiy (individual) o‘quv ish rejasini tuzish ulkan ijodiy jarayon bo‘lib, o‘quvchi uchun rejalashtirilgan asarlar repertuarining o‘qituvchi tomonidan sinchiklab tanlanishi, uning badiiy va texnikaviy tomonlarini o’quvchining ijro imkoniyatini nazarga tutgan xolda inobatga olinishini taqozo etadi. O‘quv ish rejasi, o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalarini har tomonlama va chuqur o‘ylab tanlash va ta'lim-tarbiya jarayonining muhim omillaridandir.

O‘quvchilarning asarlari mazmun, shakl va janr jixatidan har-xil bo‘lishi o‘qituvchi tomonidan muntazam ravishda yangilanib turishi kerak.

Birinchi va ikkinchi yarim yillik oldidan o‘qituvchi har bir o‘quvchi uchun alohida shaxsiy o‘quv ish rejasini tuzishi kerak.

Har qaysi yarim yillik oxirida shaxsiy o‘quv ish rejasida yozilgan asarlarni o‘quvchi tomonidan qay tarzda bajarilganligi o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. Uning muvafaqqiyatlari to‘g‘risida tavsivnoma o‘quv ish rejasiga yoziladi.

Ushbu shaxsiy (individual) o‘quv ish rejasini tuzish, mutaxassislik o’qituvchining doimiy muammolaridan biridir. O’quvchida ijroviy qobiliyatni rivojlantirishda asarlar repertuarini turli xil bo’lishi, o’quvchining xarakteri va ijro imkoniyatiga mosligi nihoyatda ma’suliyatli va muhim jarayon xisoblanadi.

Bolalar musiqa va san’at maktablarida musiqiy cholg’ulardan dars berish, bir cholg’u bo’yicha yangi kadrni tayyorlash katta mehnat talab qiladi. Nay cholg’usini o’rganish jarayoniga e’tibor qaratadigan bo’lsak. Bu jarayon ham pedagogdan ulkan menat talab qiladi.

Cholg’u ijrochiligi bo’yicha dars o‘tish murakkab ijodiy mehnat jarayonidir. O‘qituvchi o‘quvchi bilan dars o‘tishni boshlaganda, avval uyga berilgan vazifa o‘quvchi tomonidan ijro etish jarayonida xatoga yo‘l qo‘yilsa ham uni to‘xtatmasdan oxirigacha eshitib olish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchi tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni ko‘rsatish, tushuntirish va to‘g‘rilash ishlari berilgan asarni qayta ijro etish jarayonida bajariladi.

O‘qituvchi tushuntirish ishlarini nayda ijro etib ko‘rsatish bilan uzviy bog‘langan holda dars o‘tish shakl va uslubiy jihatdan to‘g‘ri olib borilayotgan ishdan dalolat beradi. Shunda o‘quvchining darsga bo‘lgan diqqat va e'tibori to‘la jalb etiladi hamda unga qiziqishi ortadi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qituvchi har darsda ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy masalalarini amalga oshirish uchun muayyan bosqichda ayniqsa eng qulay bo‘lgan va natija beradigan vositalarni tanlaydi.

Tanlangan repertuardagi asarlarni ijro qilish imkoniyati cholg’uni ijro pastanovkasiga ham bog’liqdir. Masalan: Nay chalishda qomatni tutish deyilganda ijrochining gavda holati, cholg‘uni ushlay olish va tovushni chiqarish yo‘li tushuniladi. Bunda yelkalar sal kerilgan tirsaklar bir oz ko‘tarilgan holda tutilishi lozim, aks holda, ko‘krak qafasi siqilib, nafas olish qiyinlashadi.

Nay cholg‘usini ushlaganda qullar holati tabiiy, erkin bo‘lishi lozim, shundagina har qaysi barmoqning yengil xarakat qilishi uchun imkoniyat yaratiladi. Tovushni tembr jihatdan to‘g‘ri hosil qilish uchun ma'lum qoidalarga rioya qilish zarur. Tovush hosil qilishda lablarga o‘ta zo‘r bermaslik lozim, puflab chiqarilayotgan havoning kuchi muayyan balandlikdagi tovush uchun zarur normada bo‘lishi lozim, bunda havo oqimi lablar

oraligini kengaytirmasligi kerak. Havo oqimi nay boshchasidagi teshikning o‘rtasiga yo‘naltirilishi lozim. Lablar oralig‘ining nay boshchasidagi teshikchaga to‘g‘ri o‘rnashmasligi (uning o‘ng yo chapga o‘tishi) tovushning sofligiga va uning tembr sifatiga salbiy ta'sir etadi. Ijrochining pastki labi boshchadagi teshikning yarmiga yaqinini qoplashi lozim. Bu hol to‘liq ovoz chiqishiga imkon beradi va cholg‘uning ovozini intonatsiya jixatdan tuzatishni qulaylashtiradi.

Puflab ijro etiladigan cholg‘uda ijro etayotganda nafas olish va nafas chiqarish goh bir tekis, goh asta tezlashib, goh esa ohista sekinlashib boradi. Bu esa o’qituvchi ta’lim olayotgan o’quvchiga repertuar tanlashda uning jismoniy xolatini aniqlashi lozim. Bu ijro etilayotgan asarning xarakteriga, ko‘yning ayrim joylari va ohangiga bog‘liqdir. Nafasning eng to‘g‘ri uslubi diafragmal yoki ko‘krak qorin uslubidir. Bu uslub uchun yelkani ko‘tarmasdan va bo‘yin muskullariga hech qanday zo‘r keltirmasdan nafas olinishi lozim. Bu holda diafragma aktiv ishlaydi va nafas olish chuqurlashadi.

Shunday qilib, ijrochilik nafasini to‘g‘ri bajarish shartlari aniq va oddiy bo‘lib, bu shartlar diafragma, pastki va o‘rta qovurg‘alarning faolligi hamda nafas olganda yelkalarning qimirlamasligidan iborat.

Nafas musiqaviy ifodalikning eng muxim vositalaridan biridir. U ijrochida qanchalik taraqqiy etgan bo‘lsa, uning kuyga mosligi va tovush sifati yorqin, tiniq va xilma-hil bo‘ladi.

Nafas olish malakasini har tamonlama taraqqiy ettirish va undan musiqaviy ifodalikning vositasi sifatida barcha turdagi ijro usullarini keng o‘rganish mumkun.

Ijro imkoniyatini oshirishda o’quvchiga belgilab berilgan ijroviy repertuariga ijro maxoratini oshiruvchi mashqlarni ham kiritib, asta-sekin soddalikdan murakkablikka tomon yo’naltirib repertuarni rivojlantirib boorish maqsadga muvofiq bo’ladi. Nay cholg‘usida tenikaviy ijrochilik mahoratni rivojlantirishda gamma, arpedjio, turli mashq va etyudlarni muntazam ravishda o‘rganib borish katta axamiyatga egadir. Gamma, arpedjio, mashq va etyudlar ustida ishlashda ijrochilikning sifatiga, mayin xarakatiga va uning yumshoq ijrosiga, tovushning nafisligiga, ritmni aniq his etish aniqliligiga, musiqaviy sado (intonatsiya)ning aniqliligiga va hokazolarga e'tibor berish zarur.

O‘quvchi uchun o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan repertuarni yonlab o‘tmay, balki o‘quvchida bunday qiyinchiliklarni yengishga ko‘nikma hosil qilish, o‘zlashtirishda yaxshi natijalarga olib keladi. Faqat yengil repertuarlar ustida ishlash esa o‘quvchining murakkab texnik ijrochilik rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi, ma'lum darajada uning umumiy musiqaviy ijrochilik rivojlanishini cheklab qo‘yishi mumkin. Har bir o‘quvchining asosiy imkoniyatlariga qarab o‘qituvchi unga aniq vazifa berishi va uning bajarilishini muntazam ravishda tekshirib bormog‘i maqsadga muvofiqdir.

Masalan o’zbek milliy mumtoz asarlaridan o’quvchining repertuariga kiritilsa, bilamizki milliy musiqamizda cho’zimlar sodda va bir tekisda bo’lmaydi. Buning ijrosi nay cholg’usida to’lqinlanish orqali aks ettiriladi. Tovush to‘lqinlanishi (vibratsiya) xarakteri ham naychining ijrochilik maqsadlari bilan chambarchas bog‘likdir. Tovush to‘lqinlanishini ijro etayotganda mushaklarning ortiqcha zo‘riqishiga yo‘l qo‘ymaslik, tovush to‘lqinlanishini hosil qilish malakasini o‘zlashtirishdagi muhim omildir.

Musiqa asarini o‘rganishga kirishishdan avval o‘rganilayotgan asarni tahlil etish yuzasidan o‘tkaziladigan muntazam mashg‘ulotlar o‘quvchining ijrochilik kamolotida katta rol o‘ynaydi. Masalan: yangi asarni o‘rganishdan avval o‘quvchini musiqa asarining kalit oldi belgilari, qaysi tonallikda yozilganligi, asarning musiqa bezaklari, uning dinamik belgilari va boshqalar bilan tanishtiriladi. Musiqa asarining murakkab joylari o‘quvchiga tushuntiriladi va hokazolar...

Fortepiano jo‘rligida chalish o‘quvchilarni ansamblda chalishga o‘rgatadi. Bu esa o‘quvchilarning garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantiradi.

Yangi asar berilayotgan vaqtda o‘qituvchi avvalam bor ushbu asarni o‘quvchiga o‘zi jo‘rnovoz bilan birgalikda aniq ijro etib berishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbulardan kelib chiqgan xolda o‘quvchining musiqa bilimini oshirish uchun shaxsiy o‘quv rejasidagi asarlardan tashqari ularga turli mazmundagi bir necha musiqa asarlarini varaqdan o‘qish vazifasi topshiriladi. Mutaxassislik sinfida notani varaqdan o‘qish ishlari o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga har tomonlama yordam beradi. Shu sababli o‘quvchi ikkinchi sinfdan boshlab notani varaqdan o‘qishni o‘rgana borishi zarur. Nota nomlarini

varaqdan o‘qish va tahlil etish bir-biriga bog‘liqdir. Ko’p xollarda o’quvchining ijro imkoniyati yaxshi rivojlanmasa o’qituvchi darxol repertuarni yangilaydi va shaxsiy ish rejaga “qushtirnoq ichida” o’zgartirishlar kiritadi. Ushbu xollar yuzaga kelmasligi uchun, o’quvchi ikkinchi sinfidan birinchi sinfga nisbatan tasdiqlangan dastur asosida repertuari murakkablashishini inobatga olgan xolda notani varoqdan o’qish fani kiritilgan.

O‘qituvchi o‘quvchiga varoqdan o‘qish va taxlil etish uchun tegishli musiqa asarlar repertuarini puxta o‘ylab tanlashi kerak, bunda o‘quvchilarning darsga qiziqishi va talablarini, qobiliyati va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish kerak. O‘quvchilarning ansambl va orkestrda ijro etishlari ham notani varoqdan ongli ravishda to‘g‘ri va tez tahlil etish malakasini rivojlantirish uchun ularga musiqa adabiyoti bilan mustaqil tanishishga intilish hissini uyg‘otish zarur. Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki Nay mutaxassisligi bo’yicha adabiyotlarning kamligi, nay cholg’usini o’zlashtirishda repertuarni to’g’ri shakllantirish muhim omillardan biridir.

Xulosa

Insonning ma’naviy kamolotida, uning ruhan poklanishida, asosiy mezonlardan biri, bu mumtoz musiqa san’atidir. Shodon damlarda ham, boshga tashvish tushgan chog‘larda ham dilbar navoni tinglab, orom topishimizning boisi aslida shu. Asrlar davomida shakllanib, sayqal topgan, xalqimiz ma’naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan mumtoz ashulalar, ularning targ‘ibotchilari bo‘lmish ulug‘ hofizlarning ijodi ezgulikka qaratilgani tufayli hamisha e’tiborga, e’tirofga munosibdir. Nay cholg’usining o’lkan darg’alari ustoz san’atkorlarning ijodiy merosini o‘rganib, uni yanada keng targ‘ib etish, yosh avlod qalbiga singdirish mas’uliyatli va sharafli vazifa bo‘lib qolaveradi.

Musiqa xalq qalbining, ko‘nglining ifodasidir. O‘tgan o‘nlab, yuzlab asrlar mobaynida ajdodlarimizning taqdiri qanday kechdi, ko‘nglida qanday his-tuyg‘ular hukmron bo‘ldi, bularning bari musiqiy asarlarda o‘z aksini topgan. Bizning mumtoz cholg’u ijrochiligi bo’yicha musiqalarimiz hoh u Buxoro shashmaqomi bo‘lsin, hoh Xorazm maqomlari, hoh Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari bo‘lsin hoh bastakorlarimizning mumtoz uslubda asarlari bo’lsin barchasi o‘ychan, dardli nolalar, hazin, hasratli ohanglarga boy.

Musiqa-inson ma’naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg‘usiga ta’sir etish bilan kishini ma’naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqa san’ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko‘tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo‘naltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham yurtimizda musiqa san’atini rivojlantirish, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bolalar va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan madaniyat va san’at maktablari, oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv-tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy cholg‘ularimiz va musiqamizning ajoyib namunalari bugungi kunda ham o‘zining rang-barang jilosi, ohanrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam zavq-shavq va huzur baxsh etib kelmoqda. Milliy musiqa san’atimizni har qachongidan chuqurroq va atroflicha o‘rganish, uni xalq ichida keng targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, o‘zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo‘lgan cholg‘ular va cholg‘u musiqasi qadimdan boy va murakkab ta’sirchan imkoniyatlarga ega.

Jamiyat ma’naviy hayotini rivojlantirish kishilarning ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat va ilm-fan to‘g‘risidagi tasavvurlarining nechog‘lik ilmiyligi, shuningdek, to‘g‘ri nazariy va amaliy negizga qo‘yilganligi bilan bog‘langandir.

Mazkur magistrlik dissertatsiyamiz milliy musiqiy cholg’ularimizdan biri Nay sozining musiqiy ta’lim-tarbiya usullari, ijrochilik uslublari, rivojlanish tarixi va nay sozi ijrosini o’rgatishda repertuar tanlash masalalari kabi masalalarni yoritishga qaratilgan bo‘lib, o’quvchilarning kasbiy rivojlanishi, sahna madaniyati, ma’naviy tomondan barkamol qilib tarbiyalash vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

Ushbu ishimizning vazifalari-bo‘lajak nay cholg‘usi ijrochilarini mutaxassislik bo‘yicha bilimlarni kengaytirish, kasblariga bo‘lgan qiziqishlarini yanada chuqurlashtirish, “ustoz-shogird” an’analariga qo‘yilgan talablarning bajarilishi, amaliy ijro, musiqiy nazariy bilimlar majmui hamda jo‘rnavoz bilan birgalikda ishlash uslubiyotiga alohida ahamiyat berish, hamda har tomonlama yetuk sozanda-ijrochi sifatida shakllantirish bo‘yicha o’quvchilarda bilim, malaka, ko‘nikma hosil qilinishdir. Shuningdek, o’quvchilarga berilgan bilim va o‘zlashtirilgan ko‘nikmalar orqali yosh nay sozandalarini fidoyi san’atkor qilib tarbiyalash, nay ijrochilik

san’atini xalq orasida targ‘ibot qilish bilan kishilarda madaniy axloqiy, madaniy ijodiy va vatanparvarlik g‘oyalarini shakllantirishdan iborat.

Bundan tashqari mazkur ilmiy ishimizda yetuk naychi ustoz sozanda va bastakorlarning hayotidan ibratli voqealardan keltirib, ularning tarjimai hollarini kiritdik. Bu o‘z navbatida o’quvchilarimizda faxr-iftihor to‘yg‘ularini uyg‘otibgina qolmay, o‘rnak olish ilinjida buni o‘qib o‘rganadilar degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Гафурбеков Т.Б. Фолклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчество. –Т.: O‘qituvchi, 1984. 128 b.
2. Jabborov A.H. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari.–T., 2004. 238 b.
3. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1994. 320 b.
4. I.Akbarov “Musiqa lug‘ati”, “O‘qituvchi” nashr., –Toshkent, 1997.
5. O. Ibragimov “Qo‘shnay sadolari”. “Cho‘lpon”, –T., 2003.
6. M. Matyoqubov “Qo‘shnay”. “Musiqa”, –T., 2011.
7. T. Qahhorov “Nay navosi”, “Musiqa”, –T., 2008.
8. T. Qahhorov “Torlar sadosi”, “Musiqa”, –T., 2014
9. M. Toirov “Nay uchun pyesalar”. “G‘.G‘ulom”, –T., 1987
10. A.Petrosyans “Nay darsligi”. “O‘rta va oliy maktab” nash., –T., 1963.
11. Кибирова С. Музыкальные инструменты в традиционной культуре уйгуров. Автореферат на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ленинград:1989.